

ISTIQLOL DAVRI HIKOYACHILIGIDA ONALAR MADHI

Xudoymurodova Xuriyat Muxiddinovna

TerDU dotsenti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12176872>

Annotatsiya. Ushbu maqolada istiqlol davrida yaratilgan onalar madh etilgan hikoyalar haqidagi fikrlar tahlilga tortilgan. Ona shu qadar ulug' va qudratli zotki, u ko'zga ko'rinmas ulkan kuch bilan, mehr-muhabbat bilan faqat farzandlarini, yaqinlarini emas, balki butun boshli insoniyatni bag'riga bosib, dardiga darmon bo'la oladi.

Kalit so'zlar: Ahmad A'zamning "Onamning garashalari", Orziqul Ergashning "Onamning ertaklari", adabiyot, milliy ruh, hikoyachilik.

ANTHEM OF MOTHERS IN THE NARRATIVE OF THE INDEPENDENCE PERIOD

Abstract. In this article, the opinions about stories praising mothers, created during the independence period, are analyzed. A mother is so great and powerful that she can hold not only her children and loved ones, but the entire humanity in her arms, and be a medicine for their pain with her great invisible power and love.

Key words: "My mother's garages" by Ahmad Azam, "My mother's tales" by Orzikul Ergash, literature, national spirit, storytelling.

ГИМН МАТЕРЕЙ В ПОВЕСТВОВАНИИ ПЕРИОДА НЕЗАВИСИМОСТИ

Аннотация. В статье анализируются мнения о рассказах во славу матерей, созданных в период независимости. Мать настолько велика и могущественна, что она может держать в своих объятиях не только своих детей и близких, но и все человечество и быть лекарством от их боли своей великой невидимой силой и любовью.

Ключевые слова: «Гаражи моей матери» Ахмада Азама, «Сказки моей матери» Орзикула Эргаша, литература, национальный дух, повествование.

Istiqlol davri hikoyachiligida onalar yetarli darajada madh etilgan asarlar paydo bo'ldi va yana yozilmoqda desak yanglishmaymiz. Xususan, Ahmad A'zamning "Onamning garashalari", Orziqul Ergashning "Onamning ertaklari", Ma'suma Ahmedovaning "Toji opaning tuguni", Isajon Sultonning "Men, Onam va O'rta yer dengizi", Abduqayum Yo'ldoshning "Mubtalo", Zulfiya Qurolboy qizining "Yozsiz yil", Qo'chqor Norqobilning "Bu yerlarda hayot boshqacha", Baxtiyor Nuriddinovning "Onaizor", Inobat Ibrohimovanning "Qizdan bo'ldi chirog'im", Zulfiya Yunusovaning "Ko'klam bilan kelgan baxt" hikoyalari onalar obrazi yuqorida darajada madh etilib, uning fazilatlarini, xislatlarini bo'yi ko'rsatdi.

“Bir mung keladi, qadimlardan to‘g‘ri chiqib, ko‘kragimni qiyib o‘tganicha ertangi kunimga tortilib turadi bu ingichka sim dor. Bolalik kunlarim shu dorga tizilgan. Oyim, tizzalarida tikish, nigohlari igna teshigidan o‘tib, uzoq-uzoqlarga - qizliklari o‘tgan uzoq tog‘dagi Garasha degan qishloqqa ketib qolgan. Og‘ir so‘lish olishlaridan bilaman: e-e, toshqo‘rg‘onda turar edik, bir yong‘oqlar bor edi, bir yong‘oqlar! Xayolimga haybatli tog‘lar keladi, sharqiragan soylari bo‘yi quyuyq yong‘oqzor. Oyim bir kuni suv olishga tushsalar, bir odam osmonga shoxalab ketgan shunday yong‘oqning tagida unga qarab turib: “E-eh-he! Aqqol solibdi bu!”, degan ekan, shig‘il solib turgan yong‘oq bechora shu zahoti o‘rtasidan qars ayrilib, sinib tushibdi. Ko‘zi shunaqa yomon odam, bir narsaga tikilmasin, to‘g‘ri bo‘lgani odammi, hayvonmi, o‘zicha o‘ysiz o‘sib yotgan daraxtmi, nima bo‘lmasin, shikast yetar ekan. Yaxshi ham ko‘zi yong‘oqqa tushgan, oyimga qaramagan, qaragandami, Xudo ko‘rsatmasin, oyim ham, men ham bu yerda shunday o‘tirmagan bo‘lar edik deb, necha-necha yillar oldingi xavotirdan endi seskanaman. Qo‘rqqanidan yelkasidagi obkashga ilingan satildagi suvgacha dir-dir titrayotgan kichkina qiz ko‘z oldimda kelib, Garashaga, oyimning o‘sha yoshliklariga tushib borib, ko‘zlik odamdan qo‘rigim keladi.

Oyim Garashani gapirishdan oldin bir chuqur nafas olib oladilar-u, meni bu yerda qoldirib ketadilar. Garashani gapirayotganlarida egilib pastdan ko‘zlariga qarayman: yig‘i yo‘q, yig‘lagani yosh qolmagan.

Bugunlarga kelib bilaman, yig‘laydigan ko‘ngillarini o‘sha Garashaga qo‘yib kelganlar, bu ko‘ngil qo‘l bo‘shab, tinchini topgani chog‘lari “hiy-y” degan so‘zsiz faryod bo‘lib izlanadi, yillarning tax-taxidan sizib o‘tib kelib, mening ham yuragimni simillatadi.

Samarqand uch yuzu oltmish dara,

Ko‘rmdim hech bir odami dusara... ”.

“- Hech unutmayman, 201- yil yozida tavallud kunini nishonlagan Ahmad akaning xonadonida faqat ona tilimiz va adabiyotimiz taqdiri haqida, yozilgan asarlar va yozilajak rejalar xususida suhbatlashgan edik. O‘sha kuni aka bilan so‘nggi yuzma-yuz suhbatlarimizdan biri ekanini bilmagan ekanman, - deydi O‘zbekiston xalq shoiri Xurshid Davron xotiralarida. - O‘shangacha va undan keyin ham Ahmad aka bilan haftada bir-ikki qo‘ng‘iroqlashib, ba‘zan jo‘ralarimiz qulog‘ini qizdirib o‘tgan-ketgan gaplar, ba‘zan bugungi adabiy jarayonlar haqida suhbatlashib turardik. Sog‘lig‘i to‘laqonli ijod qilishiga qanchalik to‘siqlar qo‘ymasin, u yozishni, o‘qishni to‘xtatishni o‘ylamasdi. Meniyam tinimsiz shunga da‘vat qilardi. Akaning tengdoshlari va ukalariga ibrat bo‘ladigan ishtiyoqi va matonati o‘sha paytdayam, hozir ham meni hayratga soladi. Afsuski, men nodon Ahmad aka bizni tashlab ketishi mumkinligini o‘ylamas ekanman.

Betamiz yoshlik yillari, yashirmayman, undan keyin ham, o‘zimdanda uch yosh katta Ahmad akani «jo‘ram» deb bilardim, o‘zimga tengdoshdek muomala qilardim. Ammo, bilaman,

ishonaman, sezganman, Ahmad aka meni uka deb bilardi, akalik mehri bilan muomala qilardi. Biror marta menga qattiq gapirganini eslolmayman. Men ba'zan tegajog'likni haddidan oshirganimda ham kulib qarab turaverardi.

Roppa-rosa bir yilcha avval, o'shandayam yoz edi, qo'ng'iroq qilsam, elektron pochtaga «Oyimning Garashalari»ni yuborganlarini aytib, «Hikoya emas,matn» degan so'zni ikki-uch qayta takrorladi. Men ham «Nega hikoya emas?» deb so'rab o'tirmadim. «Matn»ni o'qidimu ko'nglimda mung paydo bo'ldi, oyimni qattiq sog'inganimni sezdim, xotiralarga ko'mildim, bolalikda kechgan g'amgin voqealar kinotasmaiday ko'z o'ngimdan o'tdi. Ko'zlarimdan yosh g'ildiradi. Akaning vafotidan keyin o'tgan vaqt ichida «Oyimning Garashalari»ni necha marta o'qiganimni eslolmayman. Onamni eslasam, o'qiyman, Ahmad aka bilan suhbatlashgim kelsa, o'qiyman. O'qib bo'lamanu ularga Qur'on bag'ishlayman. Yaratgandan ularga muruvvat tilayman. O'sha lahzalarda onamning mahzun qarab turishi-yu, Ahmad akaning unutilmas tabassumi ko'z o'ngimda turadi”.

“G'aziraning ko'kliklari ichida suvga cho'kkandek yuraman, nimaga qishlog'imiz tog'da emas deb ko'nglim cho'kadi. G'ubdinimizning bulut ko'lankasidek kelbatiga qarab o'zimni kamsitaman: nimaga buncha past, cho'qqilari cho'qqi emas, do'ngalak, qishdan yoqqan qordan yozda oq qalpoq kiymaydi, shu ham tog' bo'ldiyu. Lekin Garasha! Katta bo'lsam, oyimni olib boraman, deb shunchalar orzu qilamanki! Ammo katta bo'lib, o'zimdan bo'shamadim, mashinalik bo'lib, olib borishga imkoni kelgan payti esa oyim yotib qoldilar – armonlari menga qoldi.

Hozirlari shaharda yashayman.

Men turgan joydan tog'lar ko'rinmaydi” .

Yozuvchi Ahmad A'zam ona siymosiga yana bir bor haykal qo'ydi. Uning bor mahobatini bir kichik hikoyaga jamladi.

Ona hamisha o'zida beqiyos kuch-qudrat topa oladigan noyob qudrat egasi. Yana bir gap: jafokash tarix sahifalaridan yaxshi bilamizki, onalar eng og'ir va qiyin davrlarda ham, qatag'on va qahatchilik yillaridan ham metin irodali va mehribon, jasoratli va samimiy, dovyurak va mehnatkash bo'lib, avvalo, jonidan ham aziz farzandlarini, tug'ilib o'sgan Vatanini asrab qolish uchun hayotini fido qilishdan aslo qaytmaganlar. Onalar qatag'onlardan qo'rqmaganlar, tuhmatlardan aslo cho'chimaganlar. Farzandlar esa onalarning jasorati va mardona nigohlaridan kuch-quvvat olganlar, botir bo'lganlar... Bunday ulug' onalar xotirasi oldida bosh egib, ularning ruhlariga hamisha duolar qilish insoniy burchimizdir.

Taniqli yozuvchi Orziqul Ergashning “Onamning ertaklari” hikoyasida yana bir bor onaning kimligi namoyon bo'ladi.

“Hozir esa dala chekkasida g'uj bo'lganimizcha g'o'za chopiq qilyapmiz. G'uj bo'lib olganimiz

sababi - bir oz nishab bo'lganidan bu yerlarni suv bosgan. Qotgan. Charchin bo'lib yotibdi. Agar bir egatdan tegadimi, ikki egatdanmi, ko'plashib chopmasak, kimning chekiga tushsa, yolg'iz o'zi chopiq qilib chiqquncha bo'lari bo'ladi". Hikoyada urush davri qiyinchiliklari tasvirlanadi. Chopiqchilarning orasida Zarbuvi degan yoshgina ayol ham bor. U har zamonda "yo'qolib qolaveradi". Bu o'z navbatida ayollar tomonidan har xil gap-so'zlarga sabab bo'ladi. Uni ayyor, ichidan pishgan, og'irni ustidan, yengilning tagidan yuradi deb xulosa qilishadi. Har doim uni nishonga olishadi, orqasidan gapirib yurishadi.

Aslida esa buning sabablari bor edi. Ayol ona edi...

"Zarbuvi opaning eri urushda. Uch-to'rt yoshlardagi o'g'ilchasi bilan qolgan. Buning ustiga akasining bevasi tashlab ketgan go'dakni ham boqib olgan. Shu ikki go'dakni ustidan tongda qulflab kelarkan-da, choshgohda o'g'rincha borib ovqatlantirib qaytarkan... Uning orqasidan esa bizlar har xil gap-so'z qilib, ayyordan olib yalqovga solib yotarkanmiz... E, u zamonlar..."

Hikoyachi barchasini bilgach, afsusda qoladi. Zarbuvi onalik mehrini birovga aytolmaydi. U ikki yosh go'dakni och qoldirmaslik uchun turli bahonalar to'qiydi, hatto arqoni yechilib yetgan buzoqchasini ayblaydi. Lekin onalik mehrini oshkor etmaydi.

REFERENCES

1. Normatov U, Ochilov E. Tanqid, munaqqid va hozirgi adabiy jarayon. O'zbek tili va adabiyoti, 200 yil, 4-son.
2. Normatov U. Qurbonov D. Romaning yangi umri. Jahon adabiyoti, 2001 yil, 9-son.
3. Sherov. A. Badiiy ijodiyot estetikasi. Yosh kuch, 2006, 4-son
4. Eshonqul N. Ijod qudrat, go'zallik, ilohiyotga daxldorlikdir. Milliy tiklanish, 1999-yil, 19-may.